



MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC
SOLUTIONS

EKSPORT RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA
DIVERSIFIKATSIYANING AHAMIYATI

Ikromov. E. I.

Osiyo Xalqaro Universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya: Milliy iqtisodiyot ishlab chiqarish tarkibi shakllanishida birlamchi ravishda uning geografik o'rni, tabiiy resurslari va resurs salohiyati (mehnat resurslari, ilmiy-texnikaviy, moliyaviy va boshqalar) muhim ahamiyat kasb etadi. Mavjud imkoniyatlar yetarli bo'lgan holatda, iqtisodiyotning hududiy ixtisoslashuvi shakllantiriladi hamda mamlakat aholisining va iqtisodiyot tarmoqlarini mahsulotlarga bo'lgan talabidan kelib chiqib, kengaytirilgan takror ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish imkoniyatini beruvchi samarali ishlab chiqarish tanlanadi.

Kalit so'zlar: Eksport salohiyati, Jahon iqtisodiyotining globallashuvi, iqtisodiy o'sish, tashqi bozor, milliy iqtisodiyot, zamonaviy texnologiya, boshqaruv mexanizmi.

Ishlab chiqarish tarkibi tanlanganidan so'ng, bozor qonuniyatiga ko'ra xaridorlarda talab bo'lgan mahsulot ishlab chiqarish jarayoni boshlanadi, ya'ni uni ishlab chiqarish jarayonida ishlab chiqaruvchi tomonidan ushbu mahsulotga bozorda talabning bo'lishi korxona daromadini ta'minlasa, mahsulotning haddan tashqari ortiqchaligi esa mavjud bozorning to'yinishiga va bozorda mahsulot turlarining ortishiga olib kelishi oqibatida daromad o'sishiga teskari ta'sir eta boshlaydi. Shuning uchun, doimiy ravishda mahsulot ishlab chiqaruvchining oldida bir muammo turadi, bu ishlab chiqarish yo'nalishini hisobga olgan holda daromadli mahsulotlarni ishlab chiqarish hamda uning ko'lamini kengaytirgan holda davom ettirishidir.

Bunda ishlab chiqaruvchi bir turdagi mahsulotdan olaolmagan me'yoriy daromadini boshqa turdagi yangi mahsulotni ishlab chiqarish hisobiga ega bo'lishga harakat qiladi. Ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilmasdan turib, tashqi bozorga chiqish va mahsulotlarimizni sotish borasidagi eksport dasturini amalga oshirish, valyuta daromatlari tushumini ta'minlash, yuqori texnologiyalarga asoslangan yangi ishlab chiqarishni va ish o'rinlarini tashkil etish mushkuldir.

Demak raqobatbardoshlik namoyon bo'lishining asosiy yo'nalishlaridan biri – raqobatchilarnikiga o'xshash mahsulotlarning yangi turlarini ishlab chiqarishni o'zlashtirishdir. Mahsulotlar bozorining muayyan segmentida, raqobatchilar ishtiroki qisqarishida sotuvlar hajmini kengaytirish o'zgaruvchan konyunkturaga moslashuvga misol bo'la oladi. Bunda moddiy resurslar sarfining qisqarishi ikki yo'nalish bo'yicha boshqaruv tizimini qayta qurish bilan erishiladi.

Birinchidan, nazoratni va eng avvalo, byudjet orqali moliyaviy nazoratni takomillashtirish talab etiladi.

Ikkinchidan, boshqaruvni markazdan qochirish, tashqi muhit bilan o'zaro aloqalar





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

uchun mas'uliyatni quyi pog'onalarga o'tkazish lozim. Boshqaruvni markazdan qochirishning keng tarqalgan shakli bo'lib, iste'molchiga qaratilgan guruhlarini shakllantirish va ularga o'zini-o'zi tashkil etish uchun sharoit yaratishga xizmat qiladi.

Korxonaning iste'molchilar bilan ishlaydigan har qanday mustaqil bo'limi, mahsulot hayotiy sikli qonuniyatlari asosida mahsulot assortimentini tezkor diversifikatsiyalash masalalarini o'zlashtirib olishi lozim. Bunda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar xilma-xilligi korxonaning moddiy-texnik darajasi bilan belgilanadi. Bundan tashqari korxona bo'limlari doimiy ravishda qulay bozorlarni izlashi zarur. Mustaqil bo'limlar o'zini-o'zi tashkil etishining bunday shakli, korxonaning asosiy mezon – jon saqlash bo'yicha rivojlanishini ta'minlaydi.

Ma'lumki, iqtisodiy terminologiyada ishlab chiqarish jarayonida yangi yo'nalishni tanlash yoki mahsulotning yangi turini yaratish bilan bog'liq jarayon diversifikatsiyalashuv sifatida talqin qilinadi.

Diversifikatsiya tushunchasi lotinchadan olingan bo'lib, "diversificatio" "xilma-xil taraqqiyot" degan ma'noni bildiradi. Diversifikatsiya so'ziga hozirgi kunda umumiy tarzda quyidagicha ta'rif beriladi. Diversifikatsiya korxona (birlashma)larning faoliyat sohalari va ishlab chiqarilgan mahsulotlari turlarining kengayishi, yangilanib turishidir. Diversifikatsiya – bir-biri bilan texnologik jihatdan bog'liq bo'lmagan ishlab chiqarish turlarini bir vaqtda rivojlanishi va mahsulot turlarining ko'payishidir.

Ishlab chiqarishni diversifikatsiyalash deganda bir yoki bir necha xildagi turdosh mahsulotni ishlab chiqarishga tayangan ishlab chiqarish tuzilmasidan, keng turdagi, bir necha yo'nalishni o'z ichiga olgan ishlab chiqarish tuzilmasiga o'tishni tushunish mumkin. Diversifikatsiyalashuv bir necha bosqichda amalga oshirilib, dastlab tarmoq doirasida ishlab chiqarishning ayrim tarmoqlarga ajralishi sifatida yuz berishi, so'ngra tarmoqning o'zida korxonalarning shakllanishi hamda ixtisoslashuvning yuzaga kelishi hisoblanadi.

A.Rumyansev fikriga ko'ra korxona o'z resurslari hisobiga mahsulotlar assortimentini ko'paytirishi, yangi faoliyat sohalarini o'zlashtirishi hisoblanadi.

F.Kotler tomonidan esa diversifikatsiyaga yangi sohalarni o'zlashtirish orqali korxonani rivojlantirish usuli sifatida qaraladi.

I.Ansoff esa ishlab chiqarishni diversifikatsiyalashga yangi texnologiyalarni joriy etish, yangi bozorlarga kirib borish va yangi mahsulotlarni iste'molchilarga yetkazib berish jarayoni deb ta'rif beradi. Albatta bu tadbirlar hammasi ma'lum bir investitsiyalarni talab etadi.

Shunday ekan, diversifikatsiya korxona strategiyasini o'zgartirish va unga erishishning asosiy vositalaridan biri bo'lib yuzaga chiqadi.

Diversifikatsiyaning strategik afzalliklari bir necha omillar bilan ta'riflanadi. Ulardan eng muhimlari quyida keltirilgan:

✓ sinergizm salohiyati – bu boshqaruvning yagona tizimi hamda nazorat va





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

muvofiqlashtirish hisobiga turli xildagi biznesni o'zaro birlashuvda kuzatiluvchi xarajatlarni qisqarishi, shuningdek, kapital aylanmasining tezlashuvi natijasidir;

- ✓ biznesni axborotlar bilan ta'minlanish holatini yaxshilash, marketing tadqiqotlarini integratsiyasi;
- ✓ navbatida marketing va reklamaga yo'naltirilgan vositalarni tejash imkoniyatini beradi;
- ✓ texnologiyalar o'zgarishi hisobiga texnologik yutuq hamda ilmiy-tadqiqot konstruktorlik ishlanmalarini hamkorlikda bajarish sharoitini yaratadi;
- ✓ ta'minot kanallari, marketing, xizmat va sifat darajasini oshirish bo'yicha bajariladigan ish hisobiga mahsulotlarni solishtirish imkoniyatlari yaratiladi. Bu ayniqsa to'g'ridan-to'g'ri integratsiyada kuzatiladi.

Shuningdek, diversifikatsiya ehtimoldan yiroq bo'lmagan xavflarni hisobga olish bilan bog'liq mantiqiy harakterga ega bo'lishi shart. Chunki integratsiya ham xavfli bo'lishi mumkin. Diversifikatsiya faoliyatini, bir tomondan strategik salohiyatni amalga oshirish ehtimoli bilan, boshqa tomondan esa muvozanatlashgan iqtisodiy va texnologik natijalarga erishish sifatida qabul qilish kerak.

Bundan tashqari, diversifikatsiya kamchiliklarini yangi bozorlarga chiqish xarajatining yuqoriligi, biznesda sheriklar tanlash va diversifikatsiyada muvozanatlashuv hamda yuqori egiluvchanlikni korxona faoliyatiga jalb etish zarurati va barcha integratsiyalangan sikllar bo'yicha innovatsion faoliyatni tatbiq etish kabi omillar bilan ham ifodalanishi mumkin.

Diversifikatsiya faqatgina tuzilmaviy bo'limlar holatida muvaffaqiyatli bo'lishi mumkin:

1. Mavjud tuzilmalar va ishlab chiqarish bo'limlari imkoniyatlari doimiy qidiruvini amalga oshirish. Bu esa tabiiy ravishda biznesning yangi shakllarini o'zlashtirishga olib keladi va integratsiya muammosini hal qilishni qulaylashtiradi.
2. Yangi biznes tuzilmasini qayta tashkil qilish imkoniyatlarini baholash. Bir qator tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, taxmin etilgan biznes sohasi diversifikatsiyaga qadar jalb etuvchan bo'lishi shart emas. Yangi sohaga to'liq iqtisodiy potentsiali aniqlashgunga qadar o'tish.
3. Diversifikatsiyani amalga oshirishda, asosiy biznes faoliyatida to'plangan amaliy tajribadan foydalanish. Bunda asosiy maqsad biznes subyektlarining bog'langan va kuchaytiruvchi umumiy potentsialini tashkil etishdir.
4. Korporatsiya birligi mexanizmini (xodimlar motivatsiyasi, regional markazlarni tashkil etish, korporativ madaniyatni rivojlantirish) vujudga keltirish hisobiga hamkorlikning o'ziga xos tarafini ifodalash, diversifikatsiya ta'sirida korxonaning parokanda bo'lishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida xodimlar va biznes subyektlari orasidagi o'zaro gorizontallik bog'liqlikni yana-da soddalashtirish uchun mukammal asos yaratishdir.





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

Har qanday soha korxonalari uchun ishlab chiqarishni diversifikatsiyalashni keltirib chiqaruvchi **sabablari** bo'lib, ularni umumlashtirgan holda quyidagicha tizimlashtirish mumkin:

- iqtisodiyot tarmoqlarining notekis yoki nomutanosib rivojlanishi;
- ayrim iqtisodiy faoliyat turlarida rentabellik yoki foyda darajasining pasayib borishi;
- ilmiy-texnikaviy taraqqiyot va ishlab chiqarish tejamkorligini ta'minlash;
- iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishi va klasterli iqtisodning shakllanishi;
- barcha sohalarda keskin raqobat muhitining shakllanishi va moliyaviy mustaqillikka erishish;
- korxona va tashkilotlarning bozor ulushini kengaytirishga intilishi;
- korxonaning ishbilarmonlik obro'si va imidjini oshirishga intilishi va boshqalar.

Yuqoridagi fikr-mulohazalarni umumlashtirgan holda xulosa qilib aytish mumkinki, har qanday korxonada ishlab chiqarishni diversifikatsiyalash alohida o'ziga xos xususiyatga ega bo'lsada, umumiy iqtisodiyotni diversifikatsiyalashning tarkibiy qismi hisoblanadi.

O'z navbatida, diversifikatsiya raqobat ustunligini ta'minlash, ishlab chiqarish tarkibini modernizatsiya qilish hamda texnik yangilash orqali mahsulot va xizmatlarning yangi turlari bilan ichki va tashqi bozorga chiqish kabi iqtisodiyotning ustuvor vazifalari yechimini ijobiy hal qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shunday ekan, ishlab chiqarishni diversifikatsiyalash, eng avvalo, sanoat korxonalari raqobat ustunligini ta'minlash, ularning o'z iqtisodiy - moliyaviy va moddiy-ma'naviy salohiyatlaridan maksimal foydalanish hisobiga raqobatbardoshlikka erishishini tavsiflovchi tadbirlar majmuasi tushuniladi. Tadqiqotlarga ko'ra, zamonaviy diversifikatsiya siyosati yangi mahsulotlar, uskunalar, xizmatlar va yangi texnologiyalarni ishlab chiqish hamda ularni bozorda sotish uchun yangi marketing usullaridan foydalanish bilan bog'liq bo'lib, iste'molchilar talabini to'liq qondirish hamda yangi bozorlarni egallash imkoniyatini beradi.

Diversifikatsiya siyosatining natijadorligini samara keltiruvchi mahsulotlar, xizmatlar va jarayonlarda turli darajadagi o'zgarishlarda kuzatish mumkin.

O'rganishlar shuni ko'rsatadiki, **eksportchi korxonalarda texnologiyaning rivojlanishi yangicha boshqaruv hamda marketing siyosati bilan birgalikda borishi lozim.**

Bu jarayonni quyidagicha keltirish mumkin:

1. Texnologik innovatsiyalarni yuritish shakllari va yangi bozorlarni egallash.
2. Iste'molchilar faolligini rag'batlantirishning yangi usullarini ishlab chiqish va kombinatsiyalashgan diversifikatsiya.

Ilmiy izlanishlar shuni ko'rsatadiki, diversifikatsiya siyosati marketing siyosati konsepsiyasi asosida korxonaning raqobatbardoshlik strategiyasini izlash hisoblanadi. Demak, tarmoq korxonalari diversifikatsiya siyosatini boshqarishga marketing orqali





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

yondashilib, u asosan, ishlab chiqaruvchi hamda iste'molchi nuqtai nazaridan o'rganiladi. Diversifikatsiya siyosati o'z navbatida uning strategiyani ishlab chiqishni, bozorni tahlil qilish va marketingni o'z ichiga oluvchi bir necha bosqichlardan iboratdir.

Diversifikatsiya strategiyasi va uning pirovardida korxona raqobat darajasiga ta'sir etuvchi omillarning quyidagicha tizimli tasniflash mumkin (3-jadval).

Omllarning bunday tasniflanishi, mumkin bo'lgan tasnifiy belgilarning deyarli barchasini (texnik, iqtisodiy, texnologik, ijtimoiy, tashkiliy, ekologik jihatlarini) qamrab olib, **eksportchi korxonalar diversifikatsiya siyosatiga** ta'sir etuvchi omillarning ta'sir kuchini baholashda ushbu tizimli tasniflashda keltirilgan jihatlar bilan chegaralanish mumkin. O'z navbatida tizimga nisbatan bunday omillarni ichki va tashqi omil sifatida ham qarash mumkin. Ushbu ikki guruh omillarining o'zaro ta'siri qanchalik bir-biriga mutanosib bo'lsa, korxonaning raqobat ustunligi kuchayadi, bir-birini inkor etsa aksincha ta'sir ko'rsatadi.

M.Porter raqobatbardoshlik omillarini u bilan bevosita bog'lagan holda ularni bir necha yirik guruhlarga ajratgan. M.Porter korxonaning ichki va tashqi bozordagi raqobat ustunligi, korxona joylashgan mamlakatda shakllangan sharoitlarga yuqori darajada bog'liq, ya'ni ishchi kuchining mavjudligi, tabiiy resurslarining ko'pligi, davlatning mahalliy korxonalarga nisbatan proteksionistik siyosati, korxonalarni boshqaruv amaliyotidagi farqlar va boshqa omillarga bog'liqligini asoslab bergan. Biroq, ko'rib o'tilgan omillardan alohida olingan hech biri korxonaning raqobatdagi muvaffaqiyatini belgilab bera olmaydi, degan xulosaga keladi. Uning fikricha, raqobatbardoshlik resurslardan foydalanish samaradorligi tamoyiliga asoslanadi va bu tamoyil korxona darajasiga ham, mamlakat iqtisodiyoti darajasiga ham birday taalluqlidir.

Artur A. Tompson va A. J. Striklendlar korxonaning raqobat bobidagi muvaffaqiyati garovi sifatida quyidagilar hal etuvchi omillar degan g'oyani ilgari suradilar:

- korxonaning moliyaviy holati;
- ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlari uchun sharoitlar mavjudligi hamda ularga sarflanadigan xarajatlar darajasi;
- ilg'or texnologiyalarning mavjudligi;
- yuqori malakali kadrlar bilan ta'minlanganlik darajasi;
- mahsulot va narxni o'zgartirish qobiliyati;
- savdo tarmog'ining mavjudligi;
- texnik xizmat ko'rsatish holati; kreditlash imkoniyati;
- reklama va savdoni rag'batlantirish vositalarining amaliyligi;
- axborot ta'minoti;
- asosiy xaridorlarning to'lov qobiliyatlari.

Diversifikatsiya siyosatining tarkibiy qismlaridan biri baho siyosatini to'g'ri belgilay olish raqobat ustunligini kuchaytiradi:





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

- a) resurs tejankorligiga erishish, ya'ni raqobatchilarga nisbatan mahsulotni ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish;
- b) ishlab chiqarish hajmini oshirish;
- v) bir vaqtning o'zida mahsulot tannarxini pasaytirish, uning hajmi va assortimentini oshirishga erishish.

Har uchala holatda ham baho ijobiy ta'sir etuvchi hosilaviy omil bo'lib yuzaga chiqadi. Qayta ishlash omillarini tasniflash tizimiga bo'lgan umumiy talablarni quyidagicha ifodalash mumkin:

- tasniflash tizimi omillar guruhlarining mumkin qadar to'liqroq ro'yxatini qamrab olishi;
- korxonada ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqaruv tizimining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olishi;
- jarayonlarning dinamikligi tufayli yangi omillarni kiritish hisobiga tizimni kengaytirish imkonini ta'minlashi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ikromov, E. (2024). THEORETICAL FOUNDATIONS FOR THE ORGANIZATION AND CAPACITY BUILDING OF EXECUTIVE EMPLOYEE LABOR IN PUBLIC ADMINISTRATION BODIES. *Modern Science and Research*, 3(1), 939-946.
2. Ibodulloyevich, I. E. (2023). DAVLAT BUDJETI DAROMADLARINI TAQSIMLANISHINI TAKOMILLASHTIRISH. *Gospodarka i Innowacje.*, 41, 321-325.
3. Ibodulloyevich, I. E. (2023). MAHALLIY BUDJET DAROMADLARINI PROGNOZLASHTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISHDAGI MUAMMOLAR.
4. Ibodulloyevich, I. E. (2023). KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI YANADA RIVOJLANTIRISH UCHUN QULAY ISHBILARMONLIK MUHITINI SHAKLLANTIRISH. *Gospodarka i Innowacje.*, 42, 481-484.
5. Ikromov, E. (2023). REGULATION OF BUSINESS ACTIVITY IS SIMPLIFIED. *Modern Science and Research*, 2(12), 1107-1111.
6. Ibodulloyevich, I. E. (2023). TADBIRKORLIK FAOLIYATINI TARTIBGA SOLISH SODDALASHTIRILADI.
7. Ibodulloyevich, I. E. (2024). DAVLAT BOSHQARUVI ORGANLARIDA RAHBAR XODIMLAR MEHNATINI TASHKIL ETISH VA SALOHIYATINI OSHIRISHNING NAZARIY ASOSLARI.
8. Ibodulloyevich, I. E. (2024). ZAMONAVIY MENEJMENT TAMOYILLARI VA USLUBLARIDAN FOYDALANISHDA RAHBAR MEHNATINING AHAMIYATI.
9. Ibodulloyevich, I. E. (2024). ZAMONAVIY MENEJMENT TIZIMIDA RAHBARLIK USLUBLARINING TASNIFLANISHI.





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC
SOLUTIONS

10. Ibodulloyevich, I. E. (2024). ISHLAB CHIQRISHDA RAHBAR MEHNATINING ASOSIY O‘RNI VA KORXONALAR IQTISODIY FAOLIYATIGA TA’SIRI. *Gospodarka i Innowacje.*, (45), 311-315.
11. Ibodulloyevich, I. E. (2024). Respublikada Xizmatlar Sifati Va Raqobatbardoshligini Oshirish Orqali Xizmatlar Eksportini Rivojlantirish Istiqbollari. *Gospodarka i Innowacje.*, 46, 247-251.
12. Ikromov, E. (2024). DIRECTIONS FOR IMPROVING THE ORGANIZATIONAL AND ECONOMIC MECHANISMS OF INCREASING THE QUALITY AND COMPETITIVENESS OF SERVICES. *Modern Science and Research*, 3(2), 803-810.
13. Ikromov, E. (2024). THEORETICAL APPROACHES TO THE DEVELOPMENT OF MODERN MANAGEMENT AND ITS METHODS. *Modern Science and Research*, 3(2), 811-819.
14. Ikromov, E. (2024). USE OF FOREIGN EXPERIENCES IN THE ORGANIZATION OF MANAGERIAL WORK IN PRODUCTION ENTERPRISES AND ITS IMPROVEMENT. *Modern Science and Research*, 3(2), 820-828.
15. Ikromov, E. (2024). FOREIGN EXPERIENCES OF SERVICE SECTOR DEVELOPMENT. *Modern Science and Research*, 3(2), 794-802.
16. Ikromov, E. (2023). PROBLEMS IN IMPROVING THE FORECASTING OF LOCAL BUDGET REVENUES. *Modern Science and Research*, 2(10), 794-797.
17. Ikromov, E. (2024). THE IMPORTANCE OF MANAGERIAL WORK IN THE USE OF MODERN MANAGEMENT PRINCIPLES AND METHODS. *Modern Science and Research*, 3(1), 18-23.
18. Ibodulloyevich, I. E. (2024). XIZMAT KO‘RSATISH KORXONALARI FAOLIYATI SAMARADORLIGINI BAHOLASHGA USLUBIY YONDASHUV.
19. Ibodulloyevich, I. E. (2024). XIZMAT KO‘RSATISH KORXONALARINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA AFZALLIKLARI.
20. Ibodulloyevich, I. E. (2024). XIZMAT KO‘RSATISH KORXONALARI FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI.
21. Turayevich, I. A. (2024). Iqtisodiyotga Investitsiyalarni Jalb Qilish Va Boshqarishning O‘Ziga Xos Xususiyatlari. *Miasto Przyszłości*, 53, 1231-1237.
22. Ibragimov, A. T. (2024). MILLIY IQTISODIYOTGA XORIJIY INVESTITSIYANI JALB QILISHNI SOLIQLAR VOSITASIDA RAG‘BATLANTIRISH. *Gospodarka i Innowacje*, 51, 116-122.
23. Turayevich, I. A. (2024). Milliy Iqtisodiyotga Xorijiy Investitsiyalarni Jalb Qilishda Soliqlarning O‘Rni. *Gospodarka i Innowacje.*, 53, 205-213.
24. Aziz, I. (2023). O‘zbekistonda xorijiy investitsiyani jalb qilishni soliqlar vositasida rag‘batlantirish yo‘llari. *SAMARALI TA’LIM VA BARQAROR INNOVATSIYALAR JURNALI*, 1(5), 191-196.





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

25. Qudratova, G. M., & Sodiqova, N. T. (2024). AHOLINING O'ZINI O'ZI BANDLIGINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI. *ANALYSIS OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION*, 1(2), 321-325.
26. Sodiqova, N. T., & Qudratova, G. M. (2024). INNOVATIVE MANAGEMENT AS A FACTOR OF SUCCESSFUL DEVELOPMENT OF AN ENTERPRISE. *ANALYSIS OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION*, 1(2), 315-320.
27. Sodiqova, N. T., & Qudratova, G. M. (2024). KORXONADA ISH HAQI TO'LASH TIZIMLARI VA SHAKLLARI. *STUDYING THE PROGRESS OF SCIENCE AND ITS SHORTCOMINGS*, 1(2), 279-285.
28. Sodiqova, N. T., & Qudratova, G. M. (2024). STAGES OF BUSINESS VALUATION. *THEORY OF SCIENTIFIC RESEARCHES OF WHOLE WORLD*, 1(2), 167-175.
29. Sodiqova, N. T., & Qudratova, G. M. (2024). O 'ZBEKISTON RESPUBLIKASI BANKLARIDA XMHSNI TADBIQ ETISH XUSUSIYATLARI. *MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS*, 1(3), 253-258.
30. Qudratova, G. M., & Sodiqova, N. T. (2024). OZINI OZI BANDLIGINI TAMINLASHNING ILGOR XORIJIY TAJRIBASI. *THEORY OF SCIENTIFIC RESEARCHES OF WHOLE WORLD*, 1(2), 176-181.
31. Qudratova, G. M., & Sodiqova, N. T. (2024). MONOPOLIYA VA ANTIMONOPOL SIYOSAT. *MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS*, 1(2), 464-468.
32. Qudratova, G. M., & Sodiqova, N. T. (2024). AHOLINING OZINI OZI BANDLIGINI TAMINLASHNING MAZMUN-MOHİYATI. *THEORY OF SCIENTIFIC RESEARCHES OF WHOLE WORLD*, 1(2), 162-166.
33. Sodiqova, N. T., & Qudratova, G. M. (2024). ENTERPRISE MARKETING STRATEGY. *MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS*, 1(3), 259-265.
34. Sodiqova, N. T., & Qudratova, G. M. (2024). TASHKILOTNING INNOVATION FAOLIYATI SAMARALIGINI BAHOLASH. *STUDYING THE PROGRESS OF SCIENCE AND ITS SHORTCOMINGS*, 1(2), 286-294.
35. Qudratova, G. M., & Sodiqova, N. T. (2024). RAQOBAT TUSHUNCHASI, UNING TURLARI VA USULLARI. *MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS*, 1(2), 459-463.
36. Qudratova, G. M. (2024). METHODOLOGY OF ANALYSIS OF COMPETITIVENESS OF HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS IN BUKHARA REGION. *International journal of artificial intelligence*, 4(10), 341-345.

